

Surxondaryo viloyatida “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinganining 32 yilligi va O‘zbek tili bayrami kuni keng nishonlanmoqda



Surxondaryo viloyatida “Davlat tili haqida”gi qonun qabul qilinganining 32 yilligi va O‘zbek tili bayrami kuni keng nishonlanmoqda

Bayram shodiyonalari erta tongdan Termiz shahridagi Alisher Navoiy haykali poyiga davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, soha mutaxassisarlari, adabiyotshunos olimlar, shoir va yozuvchilar, talaba-yoshlarning gulchambar qo'yish marosimi bilan boshlandi. Tantanali tadbirda TerDU rektori A.Marahimov, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi rahbari M.Allamurodov, RMMM viloyat bo‘limi rahbari N.Raxmatullayeva va boshqalar so‘zga chiqib, go‘zal va nafis tilimizning mustaqilligimizni mustahkamlashdagi ahamiyatini, obod va ozod Vatanimizni dunyoga keng tarannum etishdagi o‘rnini alohida qayd etdi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati haqida fikr almashildi. Alisher Navoiy gʻazallaridan namunalar oʻqilib, soʻz mulkining sultoni haykali poyiga gulchambarlar qoʻyildi.



